UO‘K: 911.3:81’373.21 (575.111)

ANDIJON VILOYATI TOPONIMLARINING IJTIMOIY-GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

A.A. Isayev, A.S.-M. Abdullayev

Maqolada Andijon viloyati hududidagi joy nomlarining shakllanishida ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy omillarning o‘rni tadqiq etilgan. Etnonimlar, kasb-hunar bilan bog‘liq nomlar hamda hududning ijtimoiy-siyosiy hayotini aks ettiruvchi indikatorlar tahlil qilingan. Shuningdek, joy nomlarining shakllanish tamoyillari, xususan, “chek” va “tepa” komponentli nomlarning etimologiyasi hamda ularni raqamlashtirishda zamonaviy GIS texnologiyalarining ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *Andijon, etnonim, ijtimoiy-geografik indikator, “chek”, “tepa”, etimologiya, GIS texnologiyalari.*

В статье исследуется роль социально-экономических и исторических факторов в формировании топонимов на территории Андижанской области. Анализируются этнонимы, названия, связанные с ремеслами, а также индикаторы, отражающие социально-политическую жизнь региона. Освещаются принципы формирования географических названий, в частности, этимология компонентов «чек» и «тепа», а также значение современных ГИС-технологий в их цифровизации и систематизации.

Ключевые слова: *Андижанская область, этнонимы, этимология, социально-географические индикаторы, «чек», «тепа», ГИС-технологии.*

KIRISH

Mashhur geograf olim H.Hasanov ta’riflaganidek, toponimika – bu “yerning tili”dir [1. B. 32]. Har bir geografik nom zamirida o‘sha hududda yashagan xalqlarning tarixi, madaniyati, xo‘jalik faoliyati va ijtimoiy tuzumi haqidagi qimmatli ma’lumotlar yashiringan. Andijon viloyati O‘zbekistonning eng qadimiy va aholi eng zich joylashgan hududlaridan biri bo‘lib, uning toponimik manzarasi o‘ziga xos murakkab qatlamlardan iborat. Viloyatning Farg‘ona vodiysi sharqiy qismida, adir va tog‘oldi zonalarida joylashganligi, qadimiy Buyuk Ipak yo‘li ustida ekanligi ijtimoiy-geografik nomlarning rang-barangligini ta’minlagan. Tadqiqotning maqsadi – Andijon viloyati joy nomlari tizimida ijtimoiy-iqtisodiy omillar, aholi migratsiyasi va xo‘jalik yuritish usullarining in’ikosini ilmiy asoslab berishdan iborat.

MATERIAL VA USULLAR

Tadqiqot jarayonida Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” fundamental asarlari asosiy tarixiy manba bo‘lib xizmat qildi.

Joy nomlarining kelib chiqishi va birlamchi ma’nosini aniqlashda statistik va areal metodlardan foydalanildi. Ma’lum bir turdagi toponimlarning (masalan, etnonimlarning) hududiy tarqalish zichligini aniqlashda kartografik metodga tayanildi.

NATIJALAR

Andijon viloyati toponimiyasining ijtimoiy-geografik tahlili shuni ko‘rsatadiki, hududdagi joy nomlari bir necha tarixiy va ijtimoiy qatlamlardan iborat bo‘lib, ular aholining etnik tarkibi, yerga egalik qilish huquqi va xo‘jalik yuritish usullarini aniq aks ettiradi. Tadqiqot natijasida viloyat toponimik fondining asosiy ijtimoiy indikatorlari quyidagi guruhlarga ajratildi.

Etnonimlar va ularning hududiy tarqalish xususiyatlari. Andijon viloyati aholisining etnik tarkibi juda qadimiy va murakkab bo‘lib, bu bevosita toponimiya-

da o‘z aksini topgan [2, 3]. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, viloyatdagi aholi punktlari nomlarining qariyb 25–30 foizini etnotoponimlar tashkil etadi. Bu nomlar o‘zbek xalqining shakllanishida ishtirok etgan urug‘ va qabilalar nomi bilan bog‘liq.

Viloyatning barcha tumanlarida, ayniqsa, markaziy va g‘arbiy qismlarida (Oltinko‘l, Shahrixon, Asaka, Marhamat) Nayman, Qipchoq, Barlos, Munguz, Yuz, Qirq, Mitan, Saroy kabi etnonimlar keng tarqalgan. Masalan, Oltinko‘l tumanida *Qipchoq*, *Nayman*, *Saroy* qishloqlari mavjud bo‘lsa, Buloqboshi tumanida *Nayman* va *Qirq* urug‘lari nomi bilan ataluvchi mavzelarni uchratish mumkin. Bu etnonimlarning joylashishi hududning ijtimoiy-geografik o‘tmishidan darak beradi. Chunki nayman yoki qipchoq kabi urug‘lar asosan suv bo‘ylarida va chorvachilik uchun qulay bo‘lgan yaylovlarda (adir yonbag‘irlarida) joylashganlar. Barloslar esa ko‘proq tog‘oldi va adir zonalarida (masalan, Xo‘jaobod tumanida) o‘rnashganliklari kuzatiladi. Shuni ta’kidlash lozimki, bunday nomlar nafaqat o‘sha urug‘ning bu yerda yashaganini, balki ma’lum bir davrda bu hudud o‘sha qabila tomonidan ijtimoiy nazorat qilinganligini ham bildiradi. Bundan tashqari, Andijon toponimiyasida boshqa xalqlar bilan integratsiyani aks ettiruvchi nomlar ham uchraydi. Masalan, *Tojikmahallasi*, *Qirg‘izovul, Uyg‘urqishloq* kabi nomlar hududning chegaradoshligi va uzoq vaqt davomida turli millat vakillari yonma-yon yashaganligining ijtimoiy-geografik dalilidir.

Ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlar. Andijon viloyati toponimiyasining eng o‘ziga xos va boshqa viloyatlardan farqlanib turuvchi jihati – bu **“**chek**”** komponentli nomlarning nihoyatda ko‘pligidir. “Chek” so‘zi etimologik jihatdan “chegaralangan yer”, “shaxsiy mulk sifatida ajratilgan maydon” [4. B. 43; 5. B. 125] degan ma’nolarni anglatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Andijon viloyatida “chek” so‘zi ishtirokida yasalgan toponimlar (masalan, *Yangichek, Boychek, Oqchek, G‘ishtchek, Xonchek, Qizilchek*) asosan XIX asrning o‘rtalariga, ya’ni Qo‘qon xonligi, xususan, Xudoyorxon hukmronligi davriga to‘g‘ri keladi. Bu davrda yangi yerlarni o‘zlashtirish, botqoqliklarni quritish va cho‘l hududlariga suv chiqarish orqali yangi dehqonchilik maydonlari barpo etilgan. Ushbu yerlar xizmat ko‘rsatgan shaxslarga, hunarmandlarga yoki davlat amaldorlariga “chek” (ulush) sifatida berilgan. Paxtaobod, Izboskan va Baliqchi tumanlarida o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, “chek”lar asosan suv yo‘llari (ariq va kanallar) bo‘yida joylashgan. Masalan, Paxtaobod tumanidagi *Yangichek* yoki *Tojmahal* (cheki) nomlari hududning iqtisodiy o‘zlashtirilishi bilan bog‘liq. Bu toponimlar shunchaki joy nomi bo‘lmay, balki o‘sha davrdagi yer egaligi va ijtimoiy tabaqalanishning geografik ko‘rinishidir. Boy shaxslarga qarashli yerlar *Boychek*, xonga qarashli yerlar *Xonchek*, yangi o‘zlashtirilgan yerlar esa *Yangichek* deb atalgan.

Kasb-hunar va xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq toponimlar. Viloyat aholisining asrlar davomida shakllangan xo‘jalik yuritish usullari toponimlarda yaqqol muhrlangan [5]. Andijon doimo hunarmandchilik va savdo markazi bo‘lib kelganligi sababli, maqola doirasida kasb-hunar nomlari alohida guruhga ajratildi.

Hunarmandchilik toponimlari: *Zargarlar, Temirchi, Degrez, To‘quvchi, Charmgar*. Masalan, Shahrixon va Asaka tumanlarida hunarmandchilikning muayyan turlariga ixtisoslashgan butun bir qishloq va mahallalar mavjud. *Zargarlar* nomi ushbu hududda zargarlik buyumlari ishlab chiqarish markazi bo‘lganligini anglatadi. Izboskan tumanida Zargarlik ko‘chasi (Qorayantoq mahallasi), Oltinko‘l tumanida Zargar ko‘chasi (Tadbirkor mahallasi) hamda Andijon tumanida Zarchi ko‘chasi (Nurafshon mahallasi) mavjud. Shuningdek, Andijon tumanida qadimiy zargarlik va qurolsozlikka ishora qiluvchi Jevachi mahallasi ham qayd etilgan. Bu nomlar aholining ijtimoiy strukturasi va iqtisodiy ixtisoslashuvini o‘rganishda birlamchi manba bo‘lib xizmat qiladi.

Chorvachilik va dehqonchilik toponimlari: *Pilla, Asalari, Qo‘yliq, Otchopar, Bedapoya*. Andijonning iqlim sharoiti asalarichilik va pillachilikka juda mos kelgan. *Pillakor*: Jalaquduq tumanining Qatortol mahallasi, Bo‘ston tumanining alohida mahallasi, shuningdek, Qo‘rg‘ontepa va Shahrixon tumanlarida shunday nomdagi ko‘cha va manzillar mavjud. *Tuyachi/Tuyalas*: Jalaquduq, Asaka va Izboskan tumanlarida tuya boquvchilar bilan bog‘liq nomlar mavjud. Shuningdek, *Otchopar* nomi aholining ijtimoiy-madaniy hayotida ot sporti va yilqichilikning o‘rnini ko‘rsatadi.

Savdo va infratuzilma nomlari: *Karvon, Bozor, Guzar, Rabot*. Qadimiy karvon yo‘llari ustida joylashgan *Rabot* (masalan, Marhamatdagi *Ravot*) – bu sayyohlar va savdogarlar uchun to‘xtash joyi, ya’ni mehmonxona vazifasini o‘tagan. *Guzar* yoki *Bozorboshi* nomlari esa hududning savdo markazi sifatidagi ijtimoiy funksiyasini belgilab beradi.

Gidronimlar va ularning ijtimoiy ahamiyati. Andijon – suv resurslariga boy hudud. Biroq bu yerdagi gidronimlar (suv nomlari) faqat tabiiy obyektni emas, balki inson mehnati va ijtimoiy hamkorlikni ham ifodalaydi. *Shahrixonsoy, Savay, Andijonsoy, Ulug‘nor* kabi kanallar nomlari o‘z zamonasining yirik muhandislik inshootlari bo‘lib, ular atrofida ijtimoiy hayot shakllangan.

Tadqiqot natijasida “ariq” komponentli nomlarning (masalan, *Moyariq, Eshonariq*) alohida qatlami

aniqlandi. Bu nomlar ko‘pincha ariqni qazdirgan yoki unga egalik qilgan ijtimoiy tabaqa vakillarining nomi bilan atalgan. Masalan, *Eshonariq* – diniy ulamolar yoki nufuzli shaxslar nazoratidagi suv tarmog‘ini anglatadi. Bu esa toponimikaning ijtimoiy geografiya bilan qanchalik chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi.

MUHOKAMA

Andijon viloyati toponimikasining ijtimoiy-geografik va lingvo-geografik tahlili shuni ko‘rsatadiki, hududdagi joy nomlari tizimi murakkab tarixiy-etimologik qatlamlardan tashkil topgan bo‘lib, ular viloyatning o‘ziga xos relyefi, gidrografik tarmog‘i hamda aholisining uzoq yillik xo‘jalik faoliyatini o‘zida aks ettiradi. Tadqiqot davomida viloyatning 14 ta tumani va 2 ta shahridagi 3000 dan ortiq toponimik birliklar tahlil qilinib, quyidagi natijalarga erishildi.

Tabiiy-geografik indikatorlar va oronimlar tahlili.

Andijon viloyati relyefining adir va tekislik qismlaridan iboratligi hudud oronimiyasida “tepa”, “adir”, “qir”, “bel” kabi terminlarning keng tarqalishiga sabab bo‘lgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, viloyatdagi jami oykonimlar (aholi punkti nomlari) tarkibida oronimik indikatorlar 18% ni tashkil etadi. Ayniqsa, “tepa” komponentli joy nomlari viloyatning deyarli barcha tumanlarida (ayniqsa, Asaka, Buloqboshi, Marhamat, Qo‘rg‘ontepada) yetakchi o‘rin egallaydi. Masalan, Buloqboshi tumanida *Uchtepa*, Qo‘rg‘ontepada *Qo‘shtepa*, *Xo‘jatepa*, *Ma’murobod* yaqinidagi tepaliklar nomi bilan bog‘liq punktlar aniqlandi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “tepa” so‘zi hududda ikki xil ma’noda qo‘llanadi:

1. Tabiiy-geografik joy nomi: relyefdagi kichik ko‘tarilmalarni ifodalaydi.

2. Arxeologik-tarixiy joy nomi: qadimiy shahar qoldiqlari, mudofaa inshootlari yoki qo‘rg‘onlar o‘rnini bildiradi (masalan, Marhamatdagi *Mingtepa* – qadimgi Ershi shahri qoldig‘i).

Shuningdek, **“**buloq” komponentli nomlar (viloyat toponimiyasining 7% qismi) asosan adir va tog‘oldi zonalarida (Buloqboshi, Xo‘jaobod, Marhamat) to‘plangan. *Shirmonbuloq*, *Ko‘kbuloq*, *Oydinbuloq*, *Qizilbuloq* kabi nomlar hududning yer osti suvlari chiqish nuqtalariga boy ekanligidan va aholining ilk o‘rnashish joylari aynan toza suv manbalari bilan bog‘liqligidan dalolat beradi.

Gidronimik qatlam va joylashuv qonuniyatlari.

Farg‘ona vodiysining eng sernam hududi bo‘lgan Andijon viloyati gidronimlar tizimida “soy”, “ariq”, “kanal”, “anhor” terminlari asosiy o‘rin tutadi. Tadqiqot davomida gidronimlarning ijtimoiy-lokal xususiyatlari tahlil qilinganda, ularning obyektga nisbatan yo‘nalish ko‘rsatuvchi indikatorlar bilan birikishi yuqori darajada ekanligi aniqlandi.

“Boshi” va “oyog‘i” indikatorlari: suv manbaining boshlanish yoki tugash qismini ifodalashda qo‘llaniladi (*Andijonsoy boshi*, *Ariq boshi*). “Labi” va “bo‘yi” indikatorlari: Obyektning suv yo‘liga yaqinligini bildiradi (*Anhorlabi*, *Soybo‘yi*, *Moyariq bo‘yi*). Gidronimlar orasida inson mehnati bilan yaratilgan irrigatsiya tarmoqlari nomlari (masalan, *Shahrixonsoy*, *Savay*, *Ulug‘nor*) viloyat iqtisodiy geografiyasida muhim marker hisoblanadi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, gidronimlar ko‘pincha subyektiv belgilar bilan ham boyitilgan: suvning sifati, rejimi va ovoziga berilgan xalqona tavsiflar bilan nomlangan. Jumladan, *Moyariq* (Buloqboshi tumani) – suvi “unumdor” yoki “shirin”; *Tentaksoy* (Izboskan, Paxtaobod tumanlari) – suv rejimining o‘zgaruvchanligi va shiddatliligi; *Sho‘rbuloq* (Andijon, Buloqboshi tumanlari) – suvning ta’mi; Zilolsuv (Asaka, Buloqboshi, Oltinko‘l tumanlari) – suvning o‘ta tiniqligi va tozaligi; *Shaldirama* yoki *Sholdirama*: (Izboskan, Marhamat tumanlari) – suvning oqishidagi shovqin kabilar.

Etnotoponimlarning hududiy taqsimoti.

Andijon viloyati toponimiyasining 22 foizini etnonimlar (urug‘ va qabila nomlari) tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich hududning tarixiy etnik tarkibi va aholining o‘rnashish dinamikasini o‘rganishda birlamchi manba bo‘lib xizmat qiladi.

Viloyatda Nayman, Qipchoq, Barlos, Munguz, Yuz, Qirq, Mitan, Saroy, Qoraqalpoq kabi etnonimlar keng tarqalgan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, etnotoponimlar hududda klaster ko‘rinishida joylashgan:

Naymanlar: asosan Buloqboshi va Oltinko‘l tumanlarida.

Qipchoqlar: Oltinko‘l, Izboskan va Shahrixon tumanlarida.

Barloslar: ko‘proq tog‘oldi hududlarida – Xo‘jaobod va Marhamat tumanlarida.

Ushbu etnonimlarning saqlanib qolishi viloyat aholisining shakllanishida o‘zbek xalqining barcha tarkibiy qismlari (o‘troq dehqonlar va ko‘chmanchi/yarim ko‘chmanchi urug‘lar) ishtirok etganini tasdiqlaydi.

“Chek” tizimi va ijtimoiy-iqtisodiy toponimlar.

Andijon toponimikasining eng o‘ziga xos va noyob qatlami – bu “chek” komponentli nomlardir. Viloyatda 150 dan ortiq aholi punkti va mahallalar nomlari tarkibida “chek” so‘zi uchraydi (*Yangichek*, *Boychek*, *Xonchek*, *G‘ishtchek*, *Qizilchek*, *Oqchek* va b.). Tahlillar natijasida “chek” komponentli nomlarning shakllanish qonuniyatlari quyidagicha ekani aniqlandi:

1. Mulkchilik shakli: “chek” – yer egaligi davrida ma’lum shaxsga ajratilgan ulush, yer maydonini anglatgan.

2. Xronologik davr: bu nomlar asosan XIX asr oxiri va XX asr boshlarida, yangi yerlarni o‘zlashtirish davrida vujudga kelgan.

3. Lokalizatsiya: Paxtaobod, Izboskan va Baliqchi tumanlarida bu turdagi nomlar eng yuqori zichlikka ega.

Shuningdek, xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq nomlar – Zargarlar, Temirchi, Degrez, To‘quvchi, Pilla, Otchopar kabi toponimlar viloyatning hunarmandchilik va ixtisoslashuv tarixini ko‘rsatadi. Masalan, sanoatlashgan Asaka va Shahrixon hududlarida hunarmandchilik nomlari dominantlik qilsa, qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan Qo‘rg‘ontepa va Ulug‘nor tumanlarida ko‘proq dehqonchilik va chorvachilik bilan bog‘liq nomlar uchraydi.

Nisbiylik va pozitivlik tamoyillari.

Tadqiqot davomida obyektlarni nomlashda nisbiylik tamoyili ustuvorligi aniqlandi. Nomlar ko‘pincha juftlik ko‘rinishida shakllangan.

Hajmga ko‘ra. Manbalardagi ma’lumotlarga asoslanib, Andijon viloyatining turli tumanlarida hajm (katta-kichik) ko‘rsatkichi bo‘yicha shakllangan quyidagi toponimik juftliklarni aniqlash mumkin:

Kattapolvon – Kichikpolvon: Jalaquduq tumanida Kattapolvon mahallasi va aholi punkti mavjud. Shu mahallaning tarkibida *Kichikpolvon* ko‘chasi joylashgan bo‘lib, bu nomlar o‘zaro hajm va iyerarxiya asosida shakllangan. *Katta Nayman – Kichik Nayman*: Marhamat tumanida joylashgan aholi punktlari bo‘lib, ular hajmi yoki tashkil topish tartibiga ko‘ra bir-biriga nisbatan *Katta Nayman* va *Kichik Nayman* deb nomlangan. *Katta Ko‘tarma – Kichik Ko‘tarma*: Marhamat tumanining Ko‘tarma mahallasi hududida joylashgan ko‘chalar bo‘lib, ular bir-biriga nisbatan hajmi bo‘yicha farqlangan. *Katta O‘qchi* – (*Yetti O‘qchi*): Marhamat tumanida *Katta O‘qchi* ko‘chasi mavjud bo‘lib, u hududdagi boshqa O‘qchi nomli obyektlar (masalan, Yetti O‘qchi qishlog‘i) bilan nisbiylik hosil qiladi.

Ushbu juftliklar avvalgi tahlillarda ta’kidlangan *nisbiylik (iyerarxiya) tamoyili* asosida vujudga kelgan bo‘lib, obyektlarni hajmi, aholi soni yoki hududi bo‘yicha bir-biriga qiyoslash natijasida paydo bo‘ladi. Shuningdek, “Katta” komponenti bilan boshlanuvchi, ammo juftligi (“Kichik”) keltirilmagan yoki boshqa turdagi nisbiylik (Yuqori-Pastki) hosil qilgan nomlar ham ko‘p uchraydi. Masalan, *Kattaariq* va *Kattaqo‘rg‘on* kabi nomlar hududning muhim va yirik obyektlari ekanligini anglatadi.

Joylashuviga ko‘ra. Bu turdagi nomlar asosan relyefning baland-pastligi yoki suv oqimi yo‘nalishiga nisbatan berilgan: *Yuqori Chegirtir – Pastki Chegirtir*: Jalaquduq tumanining Kesak mahallasi hududida joylashgan ko‘chalar bo‘lib, ular bir-biriga nisbatan relyefning yuqori va quyi qismida joylashganligi bilan farqlanadi. *Yuqori Chag‘ir – Pastki Chag‘ir*: Marhamat tumanining Qovunchi mahallasi hududidagi joylar nomi bo‘lib, hududiy iyerarxiya va joylashuvni aniq belgilab beradi. *Yuqori Bo‘z* – (*Quyi Bo‘z*): Asaka tumanida *Yuqori Bo‘z* mahallasi mavjud bo‘lib, u Marqayuz aholi punkti bilan bog‘liq holda qayd etilgan. *Yuqori Ravot* – (*Ravot*): Marhamat tumanida *Yuqori Ravot* mahallasi va alohida *Ravot* mahallasi mavjud bo‘lib, ular joyning vertikal holatiga ko‘ra ajratilgan. *Yuqori To‘qqizbog‘ – Quyi To‘qqizbog‘*: Paxtaobod tumanida uchraydigan ushbu juftlik ham hududning yuqori va pastki qismlarini ifodalaydi.

Ba’zan ikki obyekt o‘rtasida joylashgan manzilni belgilash uchun “o‘rta” so‘zi qo‘llaniladi: *O‘rtaqishloq*: Asaka va Izboskan tumanlarida uchraydi. Bu nom odatda yuqori va quyi qishloqlar markazida joylashgan aholi punktiga nisbatan berilgan. *O‘rtamahalla*: Oltinko‘l tumanida aholi punkti sifatida qayd etilgan. *O‘rta Raish*: Buloqboshi tumanining Raish mahallasi tarkibidagi ko‘cha nomi. *O‘rta Tumor*: Shahrixon tumanining Tumor mahallasi hududidagi joy nomi.

“Chekka” va “Markaziy” joylashuv indikatorlari. Obyektning asosiy aholi punktidan uzoqligini yoki markazda ekanligini bildiradi: *Chekka* va *Chekkatoshloq*: Jalaquduq tumanida *Chekkatoshloq* aholi punkti va ko‘chasi, Andijon tumanida esa *Chekka* ko‘chasi mavjud. Bu nomlar aholi punktining chekka qismidagi yerlarni anglatadi. *Chekkaqo‘rg‘on*: Izboskan va Asaka tumanlarida uchraydi, bu qo‘rg‘onning chekka hududda barpo etilganini bildiradi.

Markaziy va *Markaz.* Deyarli barcha tumanlarda (masalan, Jalaquduq, Oltinko‘l) uchraydi va hududning ma’muriy yoki geografik markazini bildiradi.

Rangiga ko‘ra. Manbalarda keltirilgan ma’lumotlar asosida “Oq” va “qora” komponentli quyidagi toponimik juftliklar va o‘xshash nomlarni aniqlash mumkin: Balandlik va adirlarning tuproq tuzilishi yoki o‘simlik qoplamiga ko‘ra nomlanishi ko‘p uchraydi. *Oqtepa*: Oltinko‘l tumanida *Oqtepa* mahallasi hamda *Katta Oqtepa* nomli joylar mavjud. *Qoratepa*: Asaka tumanida *Qoratepa* aholi punkti va qishlog‘i, shuningdek, Shahrixon tumanida *Qoratepa* qabristoni va ko‘chasi qayd etilgan. *Oqtosh – Qoratosh*: Jalaquduq tumanida *Oqtoshariq*, Qo‘rg‘ontepa tumanida *Oqtosh* va Paxtaobod tumanida *Oqtosh* nomlari uchraydi. Bunga qarshi ravishda Jalaquduqda *Qoratoshsoy* ko‘chasi mavjud.

Oqsuv – Qorasuv (gidronimlar). Suv obyektlarining tiniqligi yoki tarkibidagi jinslarga ko‘ra hosil bo‘lgan juftliklar. *Oqsuv*: Asaka, Buloqboshi va Qo‘rg‘ontepa tumanlarida *Oqsuv* nomli ko‘chalar bor. *Qorasuv*: Jalaquduq, Bo‘ston va Qo‘rg‘ontepa hududlarida *Qorasuv* shahri, qishlog‘i va kanallari mavjud. *Oqbuloq – Qorabuloq*: Jalaquduqda *Oqbuloq* aholi punkti, Xo‘jaobod tumanida esa *Qorabuloq*

aholi punkti va mahallasi joylashgan. *Oqqo‘rg‘on – Qoraqo‘rg‘on* (aholi punktlari). Qadimiy istehkomlar va qishloqlarning nomlanishida ham rang indikatori muhim. *Oqqo‘rg‘on*: Buloqboshi tumanida *Oqqo‘rg‘on* aholi punkti va mahallasi mavjud. *Qoraqo‘rg‘on*: Paxtaobod va Marhamat tumanlarida *Qoraqo‘rg‘on* shaharcha va qishloqlari qayd etilgan. *Oqyor*: Andijon tumanida *Oqyor* shaharchasi va qishlog‘i mavjud. *Oqto‘nlik – Ko‘kto‘nliota*: Shahrixon tumanida *Oqto‘nlik* va unga ramziy ma’noda zid bo‘lgan *Ko‘kto‘nliota* ziyoratgohlari bor. *Qorayantoq*: Jalaquduq, Izboskan va Oltinko‘l tumanlarida keng tarqalgan aholi punkti nomi. *Qorabo‘yin*: Shahrixon tumanida *Qorabo‘yin* mahallasi va ko‘chasi mavjud.

Ushbu nomlar hududning *litologik* (*tuproq-tosh*) va *gidrologik* manzarasini aks ettiruvchi “tabiiy belgilar tili” hisoblanadi. Masalan, *Oqsuv* odatda tog‘ muzliklaridan keladigan tiniq suvni, *Qorasuv* esa yer ostidan sizib chiqadigan yoki tuproq bilan to‘yingan suvni anglatadi.

Toponimlardagi ranglar xuddi *xaritaning tabiiy ranglari* kabidir: “oq” va “qora” sifatlari orqali ajdodlarimiz joyning nafaqat ko‘rinishini, balki uning xarakterini (masalan, suvning ta’mi yoki tuproqning unumdorligini) ham belgilab ketishgan. Bu holat hudud toponimik tizimining mantiqiy izchilligini va aholining geografik obyektlarni o‘zaro solishtirish orqali identifikatsiya qilish odatini ko‘rsatadi.

XULOSA

Andijon viloyati toponimlarining ijtimoiy-geografik va lingvo-tarixiy tahlili asosida o‘tkazilgan tadqiqot quyidagi ilmiy va amaliy xulosalarga kelish imkonini beradi.

1. *Toponimiyaning ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy ko‘zgusi*. Andijon viloyati toponimik qatlami shunchaki geografik nomlar majmuasi emas, balki hududning ko‘p asrlik iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini o‘zida aks ettirgan jonli arxivdir. Ayniqsa, “chek” komponentli nomlar (masalan, *Yangichek, Boychek, G‘ishtchek*) hududda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida amalga oshirilgan yer-suv islohotlari, xususiy mulkchilikning shakllanishi va yangi yerlarning o‘zlashtirilish jarayonlarini o‘rganishda asosiy indikator bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, hunarmandchilik turlari bilan bog‘liq bo‘lgan oykonimlar viloyat tumanlarining tarixiy mehnat taqsimoti va iqtisodiy ixtisoslashuvidan (zargarlik, temirchilik, to‘quvchilik) dalolat beradi.

2. *Tabiiy landshaft va nomlash qonuniyatlari*. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, viloyatning relyefi (oronimlar) va suv tarmoqlari (gidronimlar) joy nomlarining shakllanishida birlamchi asos bo‘lgan. “Tepa”, “buloq”, “adir” va “soy” kabi komponentlarning toponimlar tarkibida yuqori salmoqqa egaligi aholining joy tanlashda tabiiy-geografik qulayliklarga va suv manbalariga tayanganini ko‘rsatadi. Bu nomlar bugungi kunda hududning o‘tmishdagi tabiiy holati va landshaft o‘zgarishlarini rekonstruksiya qilishda muhim ahamiyatga ega.

3. *Milliy-madaniy merosni saqlash va standartlashtirish*. Geografik joy nomlari milliy o‘zlikni anglashning tarkibiy qismi bo‘lib, ular etnotoponimlar (urug‘ va qabila nomlari) orqali o‘zbek xalqining shakllanish tarixini saqlab kelmoqda. Tadqiqot davomida ayrim tarixiy nomlarning sun’iy ravishda o‘zgartirilishi yoki ularning talaffuzida xatoga yo‘l qo‘yilishi kuzatildi. Shu sababli, toponimlarni davlat standartlari asosida inventarizatsiyadan o‘tkazish, ularning asl etimologik shakllarini tiklash va ilmiy asoslangan transkripsiyasini yaratish dolzarb vazifa hisoblanadi.

4. *Raqamli toponimika va GAT (GIS) texnologiyalari*. Zamonaviy geografiyaning talablaridan kelib chiqqan holda, Andijon viloyati toponimlarining yagona raqamli ma’lumotlar bazasini yaratish zarur. Geografik axborot tizimlari (GAT) yordamida joy nomlarini xaritaga tushirish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

• toponimlarning hududiy tarqalish qonuniyatlarini vizuallashtirish;

• joy nomlarining davriy (xronologik) o‘zgarishini monitoring qilish;

• turizm va kadastr sohalari uchun aniq va ishonchli toponimik ma’lumotlar yetkazib berish.

Mazkur tadqiqot natijalari nafaqat nazariy geografiya, balki hududiy rejalashtirish, o‘lkashunoslik va ta’lim jarayonida ham muhim ahamiyatga ega. Toponimik ma’lumotlardan darsliklar yaratishda, sayyohlik xaritalarini tayyorlashda hamda aholi punktlarining rasmiy nomlarini tartibga solishda foydalanish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar:

1. *Ҳасанов Ҳ.Ҳ.* Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Тошкент: Фан, 1965. – 81 б.

2. *Низомов А., Раҳимова Г., Расулова Н.* Топонимика. – Тошкент: Sharq, 2012. – 120 б.

3. *Улуқов Н.М.* Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008. – 192 б.

4. *Қораев С.К.* Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005. – 240 б.

5. *Миракмалов М.Т.* Ўзбекистон топонимларининг табиий географик хусусиятлари ва географик лингвистика: Геогр. фан. докт. (DSc) дисс. – Тошкент, 2020. – 237 б.

6. *Камолиддин Ш.С.* Древнетюркская топонимия Средней Азии. – Ташкент: Шарқ, 2006. – 192 с.

7. *Миракмалов М. Т., Маматқулова Н.* Ҳ.Ҳ.Ҳасанов ва географик лингвистика // Ўзбекистон География жамияти ахбороти. – 2009. – № 33. – Б. 17–19.

8. *Мурзаев Э.М.* Очерки топонимики. – Москва: Мысль, 1974. – 382 с.

9. *Тимошкова А.Д.* Общая топонимика: методические рекомендации к выполнению лабораторных работ. – Витебск: ВГУ имени П.М.Машерова, 2016. – 40 с.

10. *Қораев С*. Toponimika. – Тошкент: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” нашриёти, 2006. – 320 б.

11. *Қораев С.* Маҳаллий географик терминлар // Китобда: Ўзбек тили терминологияси ва тараққиёт перспективалари. – Тошкент: Фан, 1986. – Б. 28–29.

12. *Қораев С., Ғуломов П., Раҳимбеков Р.* Географик терминлар ва тушунчалар изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – 156 б.

13. *Ҳакимов Қ.М.* Жой номларининг шаклланишида минтақанинг ижтимоий-иқтисодий географик хусусиятлари (Жиззах вилояти мисолида) // Геогр. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – 25 б.

14. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 октябрда тасдиқланган “Географик объектларнинг номлари тўғрисида”ги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2011. – № 41. – 448-модда.

15. *Ҳасанов Ҳ.Ҳ.* Беруний ва топонимика // Китобда: Беруний ва ижтимоий фанлар. – Тошкент: Фан, 1972. – Б. 125– 128.

SOCIO-GEOGRAPHIC CHARACTERISTICS OF TOPONYMS IN THE ANDIJAN REGION

Akbarjon A.Isayev[1], Abdulaziz S.-M.Abdullayev[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Ijtimoiy fanlar – Scientific Bulletin. Series: Social Research. 2025. 7(91). 28-34.
[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: Andijan, ethnonym, socio-geographic indicator, “chek”, “tepa”, etymology, GIS technologies.

Aim: The primary objective of this research is to scientifically substantiate the reflection of socio-economic factors, historical processes, population migration, and land-use methods within the toponymic system of the Andijan region. The study aims to identify the socio-geographic indicators that have shaped the names of settlements, water bodies, and geographical features in one of Uzbekistan’s most ancient and densely populated regions.

Materials and Methods: The research is based on the analysis of over 3,000 toponymic units across 14 districts and 2 cities of the Andijan region. Historical sources such as Zahiriddin Muhammad Babur’s *“Baburnama”* and Mahmud Kashgari’s *“Devonu lug’atit turk”* provided a foundational historical context. The methodology includes:

Etymological analysis to determine the primary meanings and origins of place names.

Statistical and areal methods to calculate the density and distribution of specific toponym types, such as ethnotoponyms.

Cartographic methods and **GIS technologies** for mapping and visualizing geographical distributions.

Results: The study reveals that Andijan’s toponymy is a complex multi-layered system:

Ethnotoponyms: Approximately 25–30% of settlement names are derived from the names of Uzbek tribes (e.g., *Nayman, Kipchak, Barlos, Yuz*). These names are often distributed in clusters, reflecting historical settlement patterns and pasture usage.

“Chek” System: A unique feature of the region is the high density of toponyms with the “Chek” component (e.g., *Yangichek, Boychek, Xonchek*). These emerged primarily in the 19th century during the Kokand Khanate era, representing “allocated shares” or private land ownership resulting from new land irrigation.

Economic Indicators: Many names are tied to professions (e.g., *Zargarlar* –jewelers, *Degrez* – metal casters) or agricultural activities (*Pilla* – silkworm cocoon, *Asalari* – bee).

Natural-Geographic Markers: "Tepa" (hill) indicators make up 18% of oykonyms, serving both natural and archaeological functions. Hydronyms often use indicators like "Boshi" (head/source) or "Bo'yi" (riverside) to denote location relative to water.

Naming Principles: Names often follow principles of relativity (e.g., *Katta* – Big / *Kichik* – Small; *Yuqori* – Upper / *Pastki* – Lower) and **color** (e.g., *Oq* — White / *Qora* — Black), which describe the physical characteristics or nature of the site.

Conclusion: The toponymy of the Andijan region serves as a "living archive" of its socio-economic and historical development. The research underscores the necessity of standardizing geographical names to preserve national heritage. Furthermore, the integration of these names into a digital database using Geographic Information Systems (GIS) is recommended to enhance regional planning, tourism, and historical monitoring.

References:

1. Hasanov, H.H. (1965). *O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan* [From the history of Central Asian place names]. Tashkent: Fan.

2. Nizomov, A., Raximova, G., Rasulova, N. (2012). *Toponimika* [Toponymy]. Tashkent: Sharq.

3. Uluqov, N.M. (2008). *O'zbek tili gidronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi* [Historical-linguistic study of hydronyms of the Uzbek language]. Tashkent: Fan.

4. Qorayev, S.K. (2005). *O'zbekiston viloyatlari toponimlari* [Toponyms of the regions of Uzbekistan]. Tashkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

5. Mirakmalov, M.T. (2020). *O'zbekiston toponimlarining tabiiy geografik xususiyatlari va geografik lingvistika* [Natural geographical features and geographical linguistics of Uzbekistan toponyms]. Dissertation for the degree of Doctor of Science. Tashkent.

6. Kamoliddin, Sh.S. (2006). *Drevnetjurkskaja toponimija Srednej Azii* [Old Turkic toponymy of Central Asia]. Tashkent: Sharq.

7. Mirakmalov, M.T., Mamatkulova, N. (2009). H.H.Hasanov va geografik lingvistika [H.H.Hasanov and geographical linguistics]. *O'zbekiston Geografiya jamiyati axboroti*. No. 33. Pp. 17-19.

8. Murzayev, E.M. (1974). *Ocherki toponimiki* [Essays on toponymy]. Moscow: Mysl.

9. Timoshkova, A.D. (2016). *Obshhaja toponimika: metodicheskie rekomendacii k vypolneniju laboratornyh rabot* [General toponymy: guidelines for laboratory work]. Vitebsk: VGU named after P.M. Masherov.

10. Qorayev, S. (2006). *Toponimika* [Toponymy]. Tashkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati.

11. Qorayev, S. (1986). Mahalliy geografik terminlar [Local geographical terms]. In: *O'zbek tili terminologiyasi va taraqqiyot perspektivalari* [Terminology of the Uzbek language and perspectives of development]. Tashkent: Fan. Pp. 28-29.

12. Qorayev, S., G'ulomov, P., Rahimbekov, R. (1979). *Geografik terminlar va tushunchalar izohli lug'ati* [Annotated dictionary of geographical terms and concepts]. Tashkent: O'qituvchi.

13. Hakimov, Q.M. (2010). *Joy nomlarining shakllanishida mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy geografik xususiyatlari (Jizzax viloyati misolida)* [Socio-economic geographical features of the region in the formation of place names (on the example of Jizzakh region)]. Abstract of Dissertation for the Candidate Geographical Sciences. Tashkent.

14. *O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktyabrda tasdiqlangan "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi qonuni* [Law of the Republic of Uzbekistan "On the names of geographical objects" approved on October 12, 2011]. In: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2011. No. 41. Article 448.

15. Hasanov, X.X. (1972). Beruniy va toponimika [Biruni and toponymy]. In: *Beruniy va ijtimoiy fanlar* [Biruni and social sciences]. Tashkent: Fan.

Mualliflar haqida ma'lumot:

ISAYEV Akbarjon Abdulhamidovich – geografiya fanlari doktori, Andijon davlat universiteti Geografiya va geoaxborot tizimlari kafedrasi professori v.b., dotsent. E-mail: akbar-78@mail.ru

ABDULLAYEV Abdulaziz Sulton Murod o'g'li – Andijon davlat universiteti Huquq-iqtisod fakulteti 2-bosqich talabasi. E-mail: abdulaziz2026@gmail.com